



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 2-dekabr

687-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–392-sonli qarori hamda viloyat hokimining 2024-yil 28-noyabdagi 572-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ–392-sonli qarorini, shu mazmundagi viloyat hokimining 2024-yil 28-noyabdagi 572-6-0-Q/24-sonli qarori ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ–392-sonli qarori ijrosi yuzasidan, viloyat hokimining 2024-yil 28-noyabdagi 572-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta’minlash uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ–392-sonli qarori bilan:

quyidagilar umumiy o‘rta ta’lim maktablarida (keyingi o‘rinlarda- maktablar) jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishni tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilanganligi;

jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari uchun o‘quv-metodik qo‘llanmalar ishlab chiqishi;

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti bilan hamkorlikda jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy mahorati va malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirishi;

jismoniy tarbiya o‘qituvchilari tarkibiga mahoratli sportchilarni jalb etishi; jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilariga malaka toifasi berishning yangi tartibini ishlab chiqishi;

o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida maktab sport klublari faoliyatini yo‘lga qo‘yishi;

jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo‘yicha milliy baholash tizimini ishlab chiqishi;

maktablarda o'quvchilarning sport musobaqalaridagi ishtiroki, maktab sport klublarining faoliyati, o'quvchilarning sport bilan qamrab olinganlik darajasini aniqlash yuzasidan reyting tizimini joriy etishi;

sport turlari bo'yicha yaxshi natijalarga erishgan o'quvchilardan iborat jamoalarni shakllantirgan holda xalqaro musobaqalarda ishtirok etishini ta'minlashi;

2025/2026-o'quv yilidan boshlab o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida har bir maktabda bosqichma-bosqich maktab sport klublari faoliyati yo'lga qo'yilishi;

quyidagilar maktab sport klublarining asosiy vazifalari etib belgilanganligi;

jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari tarkibini yuqori mahoratli sportchilar orasidan tanlov asosida shakllantirib borishi;

o'quvchilar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda jismoniy tarbiya va sportni keng targ'ib qilish, ularning muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratishi;

sport turlari bo'yicha o'quvchilardan iborat jamoalarni shakllantirish, ular o'rtasida turli sport musobaqalari va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini, xususan "maktab chempionati"ni tashkil etish orqali iste'dodli yosh sportchilarni aniqlashi;

jismoniy tarbiya o'qituvchilarini jalb qilgan holda o'quvchilar orasidan iste'dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) hamda sport maktablari sport zaxirasini shakllantirishi;

maktab sport klubi mashg'ulotlari jarayoniga jamoatchilik asosida malakali trenerlar va mutaxassislarni jalb etish, shuningdek, ilg'or tajribani joriy qilishi;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi:

a) Jizzax viloyati hokimligi bilan birgalikda 2025-yil 1-mayga qadar maktab sport klublari a'zolari uchun Zomin tumani "Lochin" dam olish maskanida o'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlash bazasini tashkil etishi;

b) Sport vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda jismoniy tarbiya fani o'qituvchilariga malaka toifalari berishning yangi tartibini ishlab chiqishi;

bunda malaka toifasini berish quyidagi ikki bosqichda amalga oshirilishi;

birinchi bosqich- Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlari;

ikkinchi bosqich-Sport vazirligi tomonidan belgilangan sport maktablarida tashkil etiladigan amaliy imtihon;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Sport vazirligi, Bilim va malakalarni baholash agentligi 2025-yil 1-iyulga qadar jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha milliy baholash tizimini ishlab chiqsin va amaliyotga joriy etish chorasini ko'rishi;

belgilanishicha:

maktab sport klublari faoliyati o'quvchilarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, sport musobaqalarini tizimli o'tkazib borish, iqtidorli yoshlarni saralab olish orqali sport maktablari zaxirasini yaratishga yo'naltirilishi;

maktab sport klublarida o'quvchilarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, sport musobaqalarini tizimli o'tkazib borish va iqtidorli yoshlarni saralab olishni tashkil qilish vazifalari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari zimmasiga yuklanishi;

yuqori natijaga erishgan maktab sport klublari a'zolari uchun davlat sport ta'lim muassasalarida nufuzli xalqaro sport musobaqalari g'olib va sovrindorlari ishtirokida amaliy mahorat mashg'ulotlari tashkil etib borilishi;

eng yaxshi natijaga erishgan maktab sport klublari a'zolari uchun Bahodir Jalolov, Oksana Chusovitina nomidagi ixtisoslashtirilgan sport maktablari va yurtimizdagi yirik sport majmualarida mahorat mashg'ulotlari tashkil etilishi;

Belgilanishicha, mazkur qaror ijrosini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish 2025-yilda O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Sport vazirligiga ajratilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi, 2026-yildan boshlab esa Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (O.Xujayev), sport maktabi (M.Abduqodirov), manfaatdor boshqarma va idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-392-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin

Tuman hokimi



A.Mansurov